

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.A.Mamajonov O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati	545
B.A.Pulatov Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari	548
K.I.Marayimova Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari ...	552
N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva Talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirish usullari	557
D.I.Asqarova Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari	561
M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari	569
M.Q.Jabborova Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamonaviy sifatiga erishish omillari	572

FALSAFA

A.A.A.Qambarov "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari	579
I.M.Arzimatova Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'rnini	583
D.E.Normatova Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati	588
I.A.Asatulloev Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari ma'naviy hayotining qiyosiy tahlili	593
T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov Korrupsiyaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limiy jihatlari	597
S.S.Evatov Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishdagi o'rnini	602
I.Y.Toirov Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarni o'rganish muammolari	606
A.M.Rasulov Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili	610
A.A.Sayitxonov Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'rnini	614
F.A.Yuldashev Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests	618
S.P.Tojiboyev Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili	625
B.X.Mirzaraximov, B.T.Shokirov Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari	631
M.A.Abduxamidov Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlariga munosabatining tahlili	635

SIYOSAT

J.A.Dadaboyeva Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari	638
A.A.G'aniyev Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati	643

TARIX

B.A.Usmonov "Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir	648
--	-----



UO'K: 37:316.6:004:316.346.32-053.6

YOSHLARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY MEZONARI

ОСНОВНЫЕ КРИТЕРИИ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ У МОЛОДЕЖИ

THE MAIN CRITERIA OF FORMING INFORMATION CULTURE IN YOUTH

Mirzaraximov Baxtiyor Xoshimovich 

Farg'ona davlat universiteti falsafa kafedrasasi dotsenti

Shokirov Bobur Tohirjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Yurisprudensiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Axborot texnologiyalari rivojlanishi sabab ijtimoiy hayotimizga Internet orqali muloqot va axborotlarni bir joydan olish, ijtimoiy tarmoqlar orqali kitoblar ham, matbuot nashrlari ham elektron shaklda taqdim etila boshlandi. Axborot oqimining ko'pligi u bilan tanishish, qayd qilish, unga ishlov berish, undan foydalanishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ya'ni axborot olish madaniyatini egallash zaruriyatini keltirib chiqardi.

Аннотация

Благодаря развитию информационных технологий в нашу жизнь вошел Интернет, как книги, так и публикации прессы стали представляться в электронном виде через социальные сети. Обилие информационного потока породило необходимость знакомиться с ним, фиксировать, обрабатывать, менять отношение к его использованию, то есть приобретать культуру получения информации.

Abstract

Thanks to the development of information technologies, the Internet has entered our lives, both books and press publications have begun to be presented in electronic form through social networks. The abundance of information flow has created the need to get acquainted with it, record it, process it, change the attitude to its use, that is, acquire the culture of information acquisition.

Kalit so'zlar: axborot madaniyati, mediasavodxonlik, axborot texnologiyalari, huquqiy bilim, axborot jamiyat, mediata'lim.

Ключевые слова: информационная культура, медиаграмотность, информационные технологии, правовые знания, информационное общество, медиаобразование.

Key words: information culture, media literacy, information technologies, legal knowledge, information society, media education.

KIRISH

Axborot texnologiyalari rivojlanib borishi insoniyatning bilim, axborotni qabul qilishi ko'lami va imkoniyatlarini keskin darajada oshirmoqda. Internet tarmog'ining paydo bo'lishi va bu sohadagi boshqa yutuqlar barcha uchun bilim olish imkoniyatlarini tenglashtirdi. "Bunday o'zgarishlar ro'y berayotgan jamiyatda yashash o'ziga xos ma'suliyatlarni zimmasiga olishni nazarda tutib, odam o'zini-o'zi tarbiyalashi va hajmi misli ko'rilmagan darajada ortib ketayotgan axborotni "hazm qilishga" ko'nikish lozimligini nazarda tutadi. Shu o'rinda eng ishonchli va eng to'g'ri ma'lumotlarni sarashni o'rganishning ahamiyati ham tobora yuksalib bormoqda"[1].

Bugungi murakkab davrda ogohlik, sezgirlik, hushyorlik doimgidan muhim ekanligi, jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitini sog'lomlashtirish va barqarorlashtirish borasida bir qator amaliy ishlarining samaradorligini kuchaytirish milliy taraqqiyot modelimizning ma'no-mazmuniga singdirilgan. Millati, tili va dinidan qat'i nazar, davlatimizda yashovchi barcha kishilar uchun munosib tinch, osuda hayot sharoitini yaratish kabi ezgu ishlarimizni izchil davom ettirish, har bir inson uchun ijtimoiy kafolatlangan turmush darajasi va erkinliklarini ta'minlash, xalqimizning qadriyatlarini va mentaliteti, milliy davlatchilik an'analariga tayanish, dunyo tajribasining ilg'or yutuqlariga asoslanish, milliy va

umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishish kabi sog'lom ma'naviy-axloqiy muhit mezonlariga asoslanishni talab etadi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Bugun mobil telefoniga (ya'ni smartfon, android tipidagi), planshet va kompyuterlariga ega internetga ulanish imkoniyati bo'lgan fuqarolar, uylar, tashkilotlarga axborot jadal kirib bormoqda. Bunday axborotlashuv jarayoni jamiyatning axborot-resurslari zahirasida, ya'ni axborotlashtirilgan makonning paydo bo'lishi va tadqiqotchilar va kutubxonalarning yangi sharoitda innovatsion faoliyat ko'rsatishi hamda shunga yarasha kitobxonning axborot olish madaniyatini egallashida o'z ifodasini topmoqda.

Zamonaviy axborot muhiti kitobxonlar uchun katta imkoniyatlarni yaratmoqda. I.G.Zaxarovaning fikricha, "ushbu imkoniyatlardan jamiyatning yangi axborot muhitida mo'ljal ola bilishga imkon beradigan zarur bilimlarga ega bo'lgan a'zolarigina oqilona foydalanadilar"[5]. Aks holda, yangilik topish ilinjida axborot ummoniga sho'ng'igan kitobxon hech narsa topolmay chiqishi mumkin. N.I.Gendina ta'kidlaganidek, "Bugun axborot jamiyatini «ta'lim oluvchi» jamiyat deb bejiz atalayotgani yo'q. Bunday deyishga quyidagilar asos bo'la oladi: axborot va bilimlar – jamiyatning bosh bunyodkor kuchi, yangilik, tezkorlik, jadallashuv – bugungi kunning eng tavsifli belgilari, xoh ishlab chiqarish, xoh ijtimoiy hayot bo'lsin texnologiyalarning yangilanish maromi qisqa tashkil etmoqda; ta'lim olishning uzluksizligi va qayta tayyorlovdan o'tishga qodirlik – shaxsning o'z ijtimoiy maqomini saqlab qolishning ajralmas qismi; har bir insonning taqdiri o'z vaqtida, yangi axborotni qidirib topish, olish, mos ravishda qabul qilish va undan samarali foydalanishiga bog'liq"[2]. Respublikada "axborot olish madaniyati", axborot-resurs markazlari va axborot texnologiya markazlarining paydo bo'lishi esa "o'quv jarayonining metodik ta'minoti" tushunchalari keng ommalashib bormoqda.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

Mutaxassis olimlarning bergan ta'rif va izohlariga ko'ra axborot olish madaniyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- jamiyatning axborotlashuv mohiyatini anglash;
- shaxsda axborot qabul qilishga xohishning ko'payib borishi;
- axborot olishga doir sovodxonlik, ilmiy bilimlar va amaliyotni egallash;
- axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish;
- shaxs erkinligi, uning postmodernizm jamiyatidagi ahloqi;
- huquqiy madaniyatning yuksalishi.

Jamiyatning axborotlashuv mohiyati tushunish deganda:

- axborotning jamiyatda amal qilishi darajasi;
- yagona axborot muhiti yuzaga kelishi; axborot olish imkoniyatlarining o'sishi;
- xalqlar, jamiyat, millatlarning yagona axborot makoniga moslashishi;
- ma'lum bir faoliyatlarning rivojlanib borishin ifodalashi nazarda tutiladi.

Demak, jamiyatning axborotlashuv mohiyatini tushunib yetish uning yagona axborot makonining paydo bo'lishi, jamiyat a'zolarining axborot oqimidagi o'zgarishlarni anglashlaridan iborat. Shaxsning ichki olamida axborot olishga intilishning vujudga kelishi axborotlashayotgan jamiyatga monand axborot olishga qiziqish, ehtiyoji ham kasbiy, ham ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga intilish, axborot yaratish va uni uzatish, axborotni sifatli o'zlashtirish hamda undan samarali tarzda amaliy foydalanish sifatlarini namoyon etish, huquqiy bilimlarga ega bo'lish, odob-ahloq me'yorlariga amal qilish tarzida ta'riflash mumkin.

Axborot olishga doir bilim, amaliy ko'nikma va bilimlarni egallash:

insonning axborotni o'zlashtirish saviyasi va undan foydalanish sifati;

axborot olish faoliyatining sifat tavsifi (inson hayot faoliyatining axborot olish, uzatish, saqlash va undan foydalanish sohasidagi sifat tavsifi);

Axborot ustidagi ish turlarida:

Uni qabul qilsih, yangilash, yetkazish va unga qayta ishlov berishda, shu asosda sifat jihatdan yangi axborot yaratishda, undan amaliy foydalanishda inson va jamiyat yoki muayyan qatlamning kamol topganlik darajasi;

axborot manbalarini ongli ravishda qabul qilish va yangilash algoritmini egallash;

kutubxonachilik-bibliografik savodxonlik, mutolaa madaniyati, axborotlashuv jarayoni nima ekanligini va uni kutubxona joylashgan tumanda, hududda amalga oshirish mohiyatini bilish;

FALSAFA

axborotlashuv maydonda, mualliflik huquqi muammolarida, so'z erkinligida, shaxsning axborot jihatdan xavfsizligi va hokazolarda mohiyatini bila olish;

«kutubxonachilik-bibliografik bilimlar», «kitob o'qish madaniyati», «axborot olish savodxonligi», ta'lim jarayonida axborot olish muhim ekanligini anglab yetish, an'anaviy, elektron, tarmoqli va boshqa axborot-resurslaridan konstruktiv foydalanish, o'zini axborot yetkazuvchisi va tashuvchisi, deb bilish, faol axborot olish;

shaxsning axborot jamiyatidagi ahlo-odob qoidalari mazmunida namoyon bo'ladi.

- kompyuter savodxonligi; axborot makonida, uni shakllantirish va o'zaro axborot almashishda erkin mo'ljal ola bilish imkonini beradigan bilimlar va ko'nikmalar;

- turli moddiy axborot tashuvchilar yordamida qayd etilgan subekt-subekt va subekt-obekt munosabatlarining mohiyati; zamonaviy axborot-resurslari, ayrim hujjatlar, axborot tizimidagi kutubxonalar, arxivlar, jamg'armalar, ma'lumotlar banklari tavsiya va xususiyatlarini tushunish;

- turli xil axborot tashuvchilardan foydalanish imkoniyatlari, axborotni to'plash, tizimga solish, saqlash va izlashning an'anaviy va elektron vositalari afzalliklari hamda kamchiliklari haqida tasavvurga ega bo'lish; zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana bilish;

- sun'iy intellekt tizimi bilan muloqot qilish, odam-mashina tizimida dialogik muloqot yuritish, telematika vositalari, global va lokal axborot-hisoblash tarmoqlaridan foydalanish, olamdagi axborot manzarasini ramzlar va belgilar, bevosita va aks axborot aloqalari tizimi sifatida anglash va o'zlashtirish, axborotlashgan jamiyatda erkin mo'ljal olish, unga moslashish qobiliyati, maktabda informatikani va axborot texnologiyalarini tashkiliy sur'atda o'qitish va axborot uzatishning zamonaviy elektron vositalarini o'quv-tarbiya jarayoniga olib kirish kabilarda namoyon bo'ladi.

Umumlashtirib ta'riflaganda: u zamonaviy axborot-resurslari, ayrim hujjatlar, axborot tizimidagi kutubxonalar, arxivlar, jamg'armalar, ma'lumotlar banklarining xarakteri va xususiyatlarini anglash;

turli xil axborot tashuvchilarini ochish imkoniyatlari, axborotni to'plash, tizimga solish, saqlash va izlashning an'anaviy va elektron vositalari afzalliklari hamda kamchiliklari haqida tasavvurga ega bo'lish;

zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishdan iboratdir. Bugungi kunda axborot zahiralari elektron tashuvchilarsiz tasavvur etish qilyin. "Axborot olish madaniyati" tushunchasi tarkibiga kirgan "axborotni sifatli o'zlashtirish hamda samarali tarzda amaliy foydalanish"[4]ga shunchaki mavjud adabiyotlar va manbalarni o'qish bilangina erishish mumkin emas. Axborot olish madaniyatini egallash, axborot yordamida ijtimoiylashuv uchun shaxs qanday bilim, ko'nikma va malakalarni qo'lga kiritishi mumkinligi, ularni qayerda, qaysi usullar bilan egallash mumkinligi, amaliyotda qo'llash uchun nimalar qilish zarurligi masalasidir.

Kitobxonning ijtimoiylashuvi axborot olish madaniyatining shakllanishida katta ahamiyatga ega. V.A.Borodinaning bergan ta'rifiga ko'ra, "Kutubxona – ijtimoiy institut, kutubxona xizmati esa – subektlarni kutubxonalar tizimi orqali ijtimoiylashtirishga qaratilgan faoliyat"[5]. Boshqacha aytganda, ijtimoiy institut kitobxonni ijtimoiylashtirish uchun xizmat qiladi. Bizningcha, kitobxonning ijtimoiylashuvi insoniyat tomonidan to'plangan kitobxonlik tajribasini egallash jarayoni va jarayonda erishilgan natijalarni mohiyatini anglashdir. Kitobxonlikning ijtimoiylashuvi murakkab pedagogik-psixologik hodisa bo'lib, mutolaa ko'nikmalarining shakllanishidan tashqari, uning natijasi, usuli, shaxsda axborotga nisbatan munosabatning hosil bo'lishida ham ifodalanadi".

Avvalo, shunga alohida e'tibor qaratish kerakki, ommaviy axborot vositalari bilim va tarbiya manbai hisoblanadi. Bilim va tarbiya bir-biridan ajralmas hodisalar hisoblanadi. Mavjud holatdan kelib chiqqan holda, ijtimoiy, pedagogik jarayonda ommaviy axborot vositalari o'zida pedagogik xususiyatlarni ham mujassamlashtirsa, ayni muddao bo'lar edi. Agarda, pedagog ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining o'ziga xos xususiyatini, bilish jarayonlarini, dunyoqarashini hamda qiziqish va mayllarini inobatga olib darsni tashkil etsa va o'quvchilarning qiziqqan kasblariga oid yangi bilimlarni, kasb sirlarini ommaviy axborot vositalirini kuzatib borsa, olgan ma'lumotlar bilan, o'tayotgan mavzu matieriallarini qiziqarli va mazmunli qilib boyitsa, bir-biriga aloqador jihatlarini ko'rsatib bera olsa, o'quvchini o'ziga jalb eta olsa, darsda samaradorligiga erisha oladi. "Bu esa, bevosita o'smir yoshidagi o'quvchini bir necha usular yordamida mavzu materiallarini to'g'ri idrok etib, yodda saqlab qolishiga va tez o'zlashtirishiga imkon beradi: birinchidan, o'smir yoshidagi o'quvchi o'zi qiziqqan kasbning fanlararo aloqalari mavjud ekanligi haqida ma'lumotga ega bo'ladi va mukammal o'rganishga hamda kasb sifatida egallashiga undasa, ikkinchi tomondan, ommaviy

axborot vositalaridan ilm-fan yo'lida olib borilgan ilmiy yangiliklar, izlanishlar, yutuqlarni yoritilganligini izlab ularni o'qishga kuzatib, o'rganib, tahlil qilib borishga hamda ommaviy axborot vositalarining ijobiy mulohazali va ijodiy-tanqidiy fikrovchi iste'molchisini shakllanishiga asos bo'ladi" [6]

"O'smir yoshidagi o'quvchi ilm-fan yangiliklarining mohiyatini bilgach, ularning yangidan yangi o'rganilmagan jihatlarini o'rganishga o'zida xohish, istak, ko'nikma va malakalarni hosil qilsagina, fikrlashi lozim bo'lgan vaqtda mustaqil fikr bildirish saviyasini shakllantira oladi" [4]

"Pedagog o'qituvchi mashg'ulotlarda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mavzu materiallarini idrok etishga tayyorlash maqsadida "aqliy hujum", "bilaman", "bilmoqchiman", "bilib oldim" kabi uslublardan foydalanishi yaxshi natijalar beradi. Sinflarda muammoli vaziyatni yaratishda o'qituvchi turli uslublardan foydalanishi mumkin: TV, radio eshittirishi, internet, gazeta yoki jurnal sahifalarida e'lon qilingan axborotga nisbatan munosabatlarini bildirishlariga imkon berish; o'rganilayotgan muammoni o'smir yoshidagi o'quvchi shaxsi uchun, pedagogik faoliyat uchun, jamiyat kelajagi uchun ahamiyatini ko'rsatish, istiqboldagi ta'lim, maktab, o'qituvchi qobiliyati haqidagi bashorat etish kabilardan foydalanish qo'l keladi"[3].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida axborot olish madaniyati bo'yicha qo'llanmalar yaratib, ta'limni boshqarish tizimlari bilan uyg'unlashtirish o'smir yoshidagi o'quvchilarga berilayotgan bilimlarning samarasini ta'minlashning asosiy me'zonlarida biri hisoblanadi. Axborot olish madaniyati, ya'ni axborot savodxonligi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'quv dasturiga kiritilsa, o'quvchilarni sifatli ilmiy manbalardan foydalanishiga, malakalari oshib borishiga katta ta'sir ko'rsatar edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <http://uz.infocom.uz/2016/10/27/talim-tizimida-axborot-olish-madaniyatini-shakllantirish-masalalari>
2. Зимняя И. А. — Культура, образованность, профессионализм специалиста (к проблеме унифицирования требований к уровню профессиональной подготовки в структуре государственных стандартов непрерывного образования) // Проблемы качества, его нормирования и стандартов в образовании. М., 1998.
3. Abdullayev X. Pedagogikani o'qitish metodikasi, Farg'ona, 2008 yil 31-bet.
4. F.M.Kuchukbayev, D.F. Abduazimova, R.X.Djurayev, M.S.Divanova, M.E.Inoyatova "O'quvchi shaxsiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi internet saytlari va teleko'rsatuvlarning ularda salbiy his-tuyg'ularni vujudga keltirishning oldini olish bo'yicha profilaktik korreksion dastur". Toshkent-2016 y. 9 bet, 10 bet
5. G'afurov U. Globallashuv sharoitida yoshlarni din niqobidagi mafkuraviy tahdidlardan asrashda Internetdan samarali foydalanishning dolzarb masalalari. // "Armiya – davlat tayanchi, tinchlik kafolati". Qurolli Kuchlar tizimidagi tarbiyaviy ishlar organlari hamda targ'ibotchilar uchun uslubiy qo'llanma. – T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2013. 285-b. (–B. 275-286).
6. Xodjayev B.X. Umumta'lim maktablari talabalarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2016. – 314 b. 120-122-b.
7. Davlatov O. G'. Talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini tarixiy-madaniy meros vositasida rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis-ya. Toshkent, 2018. – B. 36. (– 177 b.)
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tanatanali marosimdagi ma'ruza 2018 yil 7dekabr. 86-bet, 384 bet.